

## STOMATOLOGIYADA OITS VA OIV: INFEKSIYA XAVFI, PROFILAKTIKASI VA DAVOLASHDAGI YONDASHUVLAR

F.Ma'murjonova

M.Orifjonova

Z.Dadajonov

*Kokand University Andijon filiali Stomatologiya yo'nalishi talabalari*

*Email:mamurjanovafarangiz345@gmail.com*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson immunitet tanqisligi virusi (OIV) va orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) bilan kasallangan bemorlar bilan ishlashda stomatologik amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan xavflar, profilaktika choralar, shuningdek, kasallikning og'iz bo'shlig'i bilan bog'liq klinik ko'rinishlari hamda stomatologik xizmat ko'rsatish protokollari tahlil qilinadi. Shuningdek, stomatologik xodimlarning o'zini himoya qilish va etik tamoyillarga asoslangan yondashuvlar muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** OIV, OITS, stomatologiya, og'iz bo'shlig'i, profilaktika, stomatit, gingivit, aerosol, bioaerosol, infeksiya

### KIRISH

Inson immunitet tanqisligi virusi (OIV) va undan kelib chiqadigan orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) butun dunyo sog'liqni saqlash tizimi uchun haligacha dolzarb va jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxiriga kelib dunyo bo'yicha 39 milliondan ortiq odam OIV bilan yashagan va ularning qariyb 1.3 million nafari ushbu yilda infeksiya yuqtirgan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2024-yilgi statistik ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda OIV/OITS bilan ro'yxatga olingan bemorlar soni 52 mingdan oshgan. Bu ko'rsatkichlar nafaqat epidemiologik, balki ijtimoiy va klinik muammolarni ham yuzaga chiqaradi.

OIV asosan immun tizimining asosiy hujayralari — CD4+ T-limfotsitlarni nobud qilishi orqali inson organizmining infeksiyalarga qarshi tabiiy himoya tizimini izdan chiqaradi. Immunitet tanqisligi fonida bemorlarda bir qator opportunistik infeksiyalar, virusli va zamburug'li kasalliklar, shuningdek, onkologik holatlar paydo bo'ladi. Bu kasalliklar, ayniqsa, og'iz bo'shlig'ida yaqqol klinik ko'rinishlar orqali namoyon bo'lishi mumkin

Bugungi kunda stomatologiyada OIV bilan yashovchi bemorlarga sifatli va xavfsiz tibbiy xizmat ko'rsatish, bir tomondan, sog'liqni saqlash tizimidagi yuksak professionallikni, boshqa tomondan esa, yuqori darajadagi etik yondashuvni talab qiladi. Shu bois, stomatologiyada infeksiyon kasalliklar, xususan OIV/OITS bilan bog'liq holatlarda ehtiyot choralariga qat'iy rioya qilish, gigiyena va sanitariya nazoratini takomillashtirish, tibbiy xodimlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish, shuningdek, bemorlarga nisbatan diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik — zamonaviy stomatologik amaliyotning ajralmas tamoyillaridan biri hisoblanadi

Zamonaviy stomatologiya sohasida OIV/OITS bilan kasallangan bemorlarga sifatli va xavfsiz xizmat ko'rsatish uchun malakali kadrlarni tayyorlash, zamonaviy infeksiya nazorati protokollarini joriy etish va bemorlarni doimiy nazoratini ta'minlash tizimlarini rivojlantirish zarur. Bu esa sog'liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshirish va OIV epidemiyasiga qarshi kurashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

OIV infeksiyasi bo'lgan bemorlarning og'iz bo'shlig'idagi patologik holatlari

OIV infeksiyasi bilan yashovchi bemorlarda immunitet tizimining susayishi natijasida og'iz bo'shlig'ida turli xil patologik o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu holatlar ko'pincha oportunistik infeksiyalar va yallig'lanish jarayonlari shaklida namoyon bo'ladi:

Og'iz kandidozi (*Candida albicans*) — immun tizimi zaiflashgan bemorlarda eng keng tarqalgan oportunistik infeksiya hisoblanadi. *Candida albicans*ning qattiq ko'payishi natijasida shilliq qavatda oq rangli plakalarning paydo bo'lishi, qizarish va og'riq kuzatiladi. Bu holat immunitetning keskin pasayishi bilan bog'liq bo'lib, davolashda antifungal preparatlar qo'llaniladi.

Og'iz sohasidagi gepatitlar va yaralar — OIV bilan birga gepatit B va C viruslari bilan yuqtirilgan bemorlarda og'iz shilliq qavatida yiringli va yallig'lanishli jarayonlar, shuningdek, turli chuqur yaralar uchrashi mumkin. Bu patologiyalar bemorning umumiy sog'liq holatini yanada yomonlashtiradi.

Stomatit va gingivit — bu kasalliklar o'ziga xos nekrotik jarayonlar bilan kechadi, natijada og'iz bo'shlig'idagi yumshoq to'qimalar va suyaklar zararlanishi mumkin. Gingiva va yumshoq to'qimalarning nekrozi og'riq, qonash va og'iz bo'shlig'ining funksiyalarining buzilishiga olib keladi. Ushbu holatlar OIV bilan kasallangan bemorlar orasida tez-tez uchraydi va davolashda yallig'lanishga qarshi va antibakterial terapiyalar qo'llaniladi.

Og'iz saratoni xavfining oshishi — immunosupressiya fonida og'iz shilliq qavatida epiteliy hujayralarining malign transformatsiya xavfi ortadi. OIV bilan kasallanganlarda, ayniqsa yuqori xavf guruhiga kiruvchi shaxslar orasida og'iz bo'shlig'i saratonining rivojlanish holatlari ko'proq qayd etiladi. Shu sababli, bunday bemorlarni doimiy stomatologik va onkologik ko'rikdan o'tkazish juda muhim

Stomatologiyada infeksiyani yuqtirish xavfi

Stomatologik amaliyotda infeksiyalar, jumladan OIV, gepatit B va C viruslari kabi qon orqali yuqadigan kasalliklarning yuqish xavfi tibbiy jarayonlarning tabiati bilan bog'liq. Bu sohada asosan invaziv aralashuvlar, og'iz bo'shlig'ining shilliq qavati va qon tomirlari bilan bevosita aloqa, yuqori tezlikdagi burg'ular va asboblarda ishlash xavfni oshiradi.

Aerozollar va bioaerozollar xavfi: Stomatologik davolash jarayonida qo'llaniladigan yuqori tezlikdagi asboblarda (masalan, ultratovushli tozalagichlar, turbinalar, aeratorlar) og'izdagi so'lak, qon va mikroorganizmlarni mayda zarrachalar holida havoga chiqaradi. Bu zarrachalar aerozol yoki bioaerozol deb ataladi. Ular havoda uzoq vaqt saqlanib, atrofdagi sirtlarga, asboblarga va xodimlarga tarqalishi mumkin. Garchi OIV havo orqali yuqmasa-da, ushbu bioaerozollar tarkibida bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa xavfli mikroblar (masalan,

gripp, COVID-19,) orqali infeksiya yuqtirish xavfi ortadi. Ayniqsa, ko'p bemorlar bilan ishlanadigan klinikalarda bu holat jiddiy sanitariya-gigiyena choralarini talab qiladi.

JSST va CDC ma'lumotlariga ko'ra, stomatologning OIV bilan kasallangan bemorning qoniga tasodifan igna sanchishi yoki kesuvchi asbob orqali zararlanishi natijasida OIV yuqish ehtimoli 0.3% deb baholanadi. Bu past ko'rsatkich bo'lsa-da, xavfsizlik choralariga qat'iy rioya qilinmagan holatlarda infeksiya tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sterilizatsiya va dezinfeksiya yetishmovchiligi: Asbob-uskunalarni to'liq va to'g'ri sterilizatsiya qilmaslik, ishlatilgan asboblarning orasida infeksiyali zarralar qolishi OIV, gepatit B/C kabi viruslarning yuqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, yuqori haroratda ishlaydigan avtoklavlardan noto'g'ri foydalanish, bir martalik asboblarning qayta ishlatilishi xavfni kuchaytiradi.

Xodimlar o'rtasida bilim yetishmovchiligi: Tibbiyot xodimlarining infeksiya nazorati bo'yicha bilim va ko'nikmalarining yetarli emasligi, shaxsiy himoya vositalaridan noto'g'ri foydalanish, xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish bo'yicha malaka yo'qligi ham yuqish xavfini oshiradi.

Bemorlarga nisbatan diskriminatsiya va yashirin infeksiya xavfi: Amaliyotda bemorlar o'zlarida OIV yoki virusli gepatitlar mavjudligi haqida stomatologga ataylab yoki bilmagan holda ma'lumot bermasligi holatlari uchray turadi. Natijada, bu holat stomatologik muhitda infeksiyaning yashirin tarqalish xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, har bir bemorni potentsial infeksiya tashuvchisi sifatida baholash va universal ehtiyot choralariga qat'iy amal qilish stomatologik xavfsizlikning muhim tamoyili hisoblanadi.

#### Profilaktika choralar

Stomatologik muassasalarda infeksiyani oldini olish maqsadida quyidagi choralarga qat'iy rioya etish zarur:

Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish: Niqob, steril qo'lqop, ko'zoynak, yuz qalqoni va tibbiy xalatlarning stomatologik muolajalarda standart himoya vositalari hisoblanadi. Ular shilliq qavatlar, teri va nafas yo'llarini infeksiyadan himoya qiladi. Har bir bemordan so'ng ularni almashtirish zarur.

Qo'l gigiyenasi: Qo'l gigiyenasiga rioya qilish — infeksiya nazoratining eng muhim qismidir. Muolaja oldidan va undan keyin qo'llar antiseptik vositalar bilan tozalanadi. Qo'lqoplar har safar almashtirilib, ishlatilganidan keyin ham qo'llar yuvilishi kerak

Asbob-uskunalarni sterilizatsiya qilish: Qayta ishlatiladigan stomatologik asboblarning bemor bilan kontaktdan keyin to'liq sterilizatsiya qilinishi shart. Avtoklavlar, kimyoviy sterilizatorlar yoki issiqlik bilan ishlov beruvchi qurilmalardan foydalaniladi. Ish joyining yuzalari va uskunalari ham har bir bemordan keyin dezinfeksiyalanadi.

#### Infeksiyani tarqatmaslik uchun chiqindilarni to'g'ri yo'q qilish

- Tibbiy chiqindilar (shprits, igna, qo'lqop, qonli materiallar) infeksiyon xavfli chiqindilar toifasiga kiradi.

- Bunday chiqindilar maxsus belgili konteynerlarga tashlanadi va yo'q qilinadi (avtoklavlash, yondirish).

- Bu ishlar tibbiy chiqindilar bilan ishlashga o'rgatilgan xodimlar tomonidan amalga oshirilishi shart.

Bemordan anamnez yig'ish

- Har bir bemordan muolajaga kirishishdan avval sog'lig'i haqidagi to'liq ma'lumot olinishi zarur (anamnez).

- Bemorning immun holati, OIV yoki gepatit statusi haqida ma'lumotlar og'zaki yoki laborator tahlillar asosida aniqlanadi.

- Bemor o'z infeksiyasi haqida ma'lumot bermasligi mumkin. Shu sababli, ehtiyot choralar qo'llanilishi kerak

Xulosa: Har bir bemor teng huquqqa ega; Bemorning tibbiy holati maxfiy saqlanishi shart; OIV infeksiyasi borligini aniqlash stomatolog tomonidan faqat klinik ko'rsatkichlar asosida emas, laborator tahlil natijalariga asoslangan holda baholanishi zarur. Ushbu maqolada stomatologik amaliyotda OIV va OITS bilan kasallangan bemorlar bilan ishlashda yuzaga keladigan infeksiya xavfi, og'iz bo'shlig'idagi kasalliklarning klinik ko'rinishlari va profilaktika choralarining ahamiyati batafsil tahlil qilindi. OIV immun tizimining CD4+ T-limfotsitlarini nobud qilishi natijasida bemorlar turli oportunistik infeksiyalar va onkologik kasalliklarga moyil bo'ladi. Og'iz bo'shlig'idagi kandidoz, stomatit, gingivit kabi patologiyalar immunitetning pasayishi bilan ko'payadi va bu holatlar bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi. Stomatologik amaliyotda yuqish xavfi asosan invaziv aralashuvlar, bioaerozollar, igna sanchish kabi holatlar orqali yuzaga keladi. Shu sababli, infeksiya nazorati choralariga qat'iy rioya qilish, ya'ni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, asboblarni to'g'ri sterilizatsiya qilish va muhitni dezinfeksiya qilish zarur. Bundan tashqari, stomatologik xodimlarning infeksiya nazorati bo'yicha muntazam o'qitilishi xavfni sezilarli darajada kamaytiradi. Bemorlar bilan ishlashda diskriminatsiya va stigmatizatsiya mutlaqo qabul qilinmaydi. Har bir bemor potentsial infeksiya manbai sifatida qaralishi va ularga tibbiy yordam ko'rsatishda maxfiylik tamoyiliga amal qilinishi kerak. Shuningdek, har bir bemordan to'liq anamnez olish, laborator tahlillar bilan immun holatini baholash ham profilaktikaning muhim qismi hisoblanadi. Natijada, stomatologiyada zamonaviy infeksiya nazorati protokollarini joriy qilish va etik prinsiplarni qat'iy qo'llash OIV epidemiyasiga qarshi samarali kurashishda muhim rol o'ynaydi. Bu nafaqat stomatologik xodimlarni, balki bemorlarni ham himoya qiladi va tibbiy xizmat sifatini oshiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. World Health Organization (WHO). HIV/AIDS Fact Sheets and Guidelines.

<https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hiv-aids>

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining OIV/OITS bo'yicha rasmiy ma'lumotlari, global epidemiologiya, profilaktika va boshqaruv bo'yicha qo'llanmalar. Ushbu manba stomatologiyada infeksiya nazorati uchun standart asos hisoblanadi.

2. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Guidelines for Infection Control in Dental Health-Care Settings. MMWR 2003;52(RR-17):1–61.

CDC tomonidan stomatologik muassasalarda infeksiya xavfini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan protokollar va tavsiyalar, jumladan OIV va boshqa qon orqali yuqadigan infeksiyalarni oldini olish choralari.

3. Fauci AS, Lane HC. Harrison's Principles of Internal Medicine, 20th Edition, 2018.

OIV/OITS patofiziologiyasi, immunitet tizimining buzilishi, klinik ko'rinishlar va zamonaviy davolash yondashuvlari haqida chuqur tibbiy ma'lumotlar.

4. Glick M. Burket's Oral Medicine, 12th Edition, 2015.

Og'iz bo'shlig'idagi OIV bilan bog'liq kasalliklar, stomatologik klinik ko'rinishlar va diagnostika yondashuvlari bo'yicha yetakchi qo'llanma.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. OIV/OITS bo'yicha milliy statistik hisobot 2024.

O'zbekiston hududidagi OIV/OITS epidemiologiyasi, bemorlar soni va sog'liqni saqlash tizimining ushbu kasalliklarni boshqarishdagi roli haqida rasmiy ma'lumotlar.

6. Kumar V, Abbas AK, Aster JC. Robbins Basic Pathology, 10th Edition, 2017.

Immunitet tizimi, oportunistik infeksiyalar va malign transformatsiyalar haqida nazariy asoslarni bayon etuvchi standart patologiya darsligi.

7. ISO 11138 and ISO 17665 Standards on Sterilization of Medical Devices.

Infeksiyalarning oldini olish va stomatologik asbob-uskunalarni sterilizatsiya qilish bo'yicha xalqaro standartlar, sterilizatsiya jarayonlari va sifat nazorati bo'yicha talablar.

8. Hammer SM, Eron JJ Jr, Reiss P, et al. Antiretroviral treatment of adult HIV infection: 2008 recommendations of the International AIDS Society–USA panel. JAMA. 2008;300(5):555-570.

OIV infeksiyasining tibbiy davolash protokollari, shu jumladan antiretrovirus terapiyasining stomatologik yondashuvlarga ta'siri haqida tavsiyalar.

9. Patton LL, McKaig R, Strauss R, Rogers D, Eron JJ. Oral manifestations of HIV/AIDS: knowledge and attitudes of North Carolina dentists. J Am Dent Assoc. 2002;133(3):338-346.

Stomatologlarning OIV bilan kasallangan bemorlarga nisbatan bilimlari, yondashuvlari va amaliy tajribalari bo'yicha tadqiqot.

10. Malcolm R, Parkins A, Sweeney J, Harcourt-Brown K. HIV/AIDS: Implications for oral health care. Br Dent J. 2001;190(1):12-17.

OIV/OITS bilan bog'liq stomatologik profilaktika, infeksiya nazorati va etik yondashuvlarga oid zamonaviy qarashlar.